

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

## **ZOONIM KOMPONENTLI FRAZEMALARING GRAMMATIK QURILISHI**

**Safarboyeva Yulduzzon Odilboyevna**  
*Ajiniyoz Nukus DPI doktoranti*

**Annotatsiya:** maqolamizda frazeologik birliklarning til ijtimoiy funksiyalarida tutgan o‘rni, shakllanishi, komponent tarkibi, semantik xususiyatlari qiyosiy va chog‘ishtirma aspektida badiiy asarlarda misollar tariqasida ochiqlandi. Hamda struktur-semantik jihatidan allofrazemalar haqida misollarda ko‘rsatib beriladi. Qoraqalpoq va o‘zbek tillaridagi allofrazemalaring grammatic qurilishi tahlil qilindi, variantlari misollar tariqasida beriladi. O‘zbek tilidagi frazemalarining struktural xususiyatlari ham bir-biriga yaqin ekanligi ma’lum bo‘ldi. Qoraqalpoq tilining frazeologik lug‘atida berilgan frazemalar soni ko‘pligi ko‘rindi, ammo ularning tarkibi jihatidan tuzilish qoliplari o‘zaro yaqin ekanligi asoslandi.

**Kalit so‘zlar:** komponent, struktur -semantik, allofrazemalar, sinxron, aspekt, kognitiv, konseptual.

**Abstract.** In our article, the role of phrase logical units in the social functions of language, their formation, component structure, and semantic properties were revealed as examples in artistic works in a comparative and comparative aspect. It was also shown in examples about allaphrasemes from the structural-semantic point of view. Grammatical construction of allaphrasemes in Karakalpak and Uzbek languages were analyzed, variants were given as examples. It turned out that the structural features of phrases in the Uzbek language are close to each other. It was found that the number of phrases given in the phrase logical dictionary of the Karakalpak language is large, but in terms of their composition, the structural patterns are close to each other.

**Key words:** component, structural-semantic, allaphrases, synchronous, aspect, cognitive, conceptual.

Frazeologik birliklarning til ijtimoiy funksiyalarida tutgan o‘rni, shakllanishi, komponent tarkibi, semantik xususiyatlari qiyosiy va chog‘ishtirma aspektida, sinxron aspektida atroflicha tadqiq qilingan. Frazeologik ma’no shakllanishining kognitiv asoslari konseptual asosda o‘rganilgan. Ammo tarixiy manbalardagi frazeologik birliklar semantik va grammatic xususiyatlari, keyingi davr tiliga munosabati, frazeologik birliklar taraqqiyotidagi struktur-semantik o‘zgarishlar masalasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar kam miqdorni tashkil qiladi.

Shu bois, o‘zbek tilining qoraqalpoq tili bilan birgalikda, frazemalarining grammatic xususiyatlarini o‘rganish, qiyoslash, qardosh xalqlarning qadriyatlarida aks etgan zoonim komponentli frazemalarining grammatic xususiyatlarini struktur-semantik jihatidan tahlil qilinishi dolzarblik kasb etadi. Aynan qoraqalpoq va o‘zbek tillarida bu mavzu atroflicha ilmiy tadqiq qilinmagan.

O‘zbek tilshunosligida frazemalarining grammatic xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar talaygina. Prof. Sh.Rahmatullayev “Hozirgi adabiy o‘zbek tili” darsligida frazemalarining grammatic xususiyatlarini chuqur tahlil qiladi. Frazemalar birikmaga

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

teng, birikma shaklga teng, gap shaklga teng, gap shaklga teng frazemaning transformasi, tarkibida tobe qism bo‘lib ergash gap shakl qatnashadigan, bиринчи qism birikma shaklga, ikkinchi qism gap shaklga teng bo‘lgan frazemalar kabi olti turga ajratib ko‘rsatgan [4:163-166].

M.Vafoyeva “O‘zbek tilidagi frazeologik sinonimlar va ularning struktural- semantik tahlili” mavzusidagi nomzodlik ishida frazeologik sinonimlarni prof. Sh.Rahmatullayevning qarashlariga asoslanib morfologik jihatdan: 1.Fe’l FS lar. 2. Sifat FS lar. 3. Ravish FSlar deb uchga ajratib tasnif qiladi. Fe’l FS larni 5 turga, sifat FS larni 7 turga, ravish FS larni uch turga ajratib, struktural jihatlarini aniqlaydi [6:12-17].

Qoraqalpoq tilshunoslida frazeologizmlarning struktural tiplari haqida tilshunoslardan Y.Berdimuratov, G.Aynazarova va B.Yusupovalarning ishlarida ayrim fikrlar bayon qilingan [1;2;8].

J.Tanirbergenov “Qoraqalpoq tilida fe’l frazeologizmlarning lingvistik tahlili” mavzusidagi tadqiqotida fe’l frazeologizmlarni struktur jihatdan uch turga ajratib tahlil qiladi. 1. Ikki komponentli. 2. Uch komponentli. 3. Ko‘p komponentli. Keyingisida to‘rt va undan ortiq komponentli frazeologizmlar o‘rganilgan. Muallif besh, olti komponentli fe’l frazeologizmlar qoraqalpoq tilida kam bo‘lsa ham uchrashini ta’kidlaydi. Ikki komponentli frazeologizmlarni 12 turga, uch komponentli frazeologizmlarni 15 turga, ko‘p komponentlilarini 11 turga ajratib tahlil qiladi [7: 19-21].

O‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi zoonim komponentli frazemalar bizning kuzatishlarimizcha , morfologik jihatdan fe’l frazemalar, sifat frazemalar va ravish frazemalarga ajraladi. Ularda hozirgi o‘zbek va qoraqalpoq tillaridagi sintaktik bog‘lanishlarning deyarli barcha turlari o‘z aksini topgan.

Fe’l frazemalarni tarkibidagi komponentlar strukturasiga ko‘ra quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

### **1. Ikki komponentli ot frazemalar:**

**IT AZOBIDA** o‘ta qiynalgan holatda juda qiynalgan, og‘ir ahvolga soldi degan ma’nolarini ifodalaydi.

*Undan [Qalandarovdan] tezda tayinli bir ishora bo‘lmagandan keyin Huriniso vinoni ichdi, lekin it azobida ichdi.* A. Qahhor. Sinchalak. «*Yuzboshi (tillani) yeganicha yebdi, yutolmay qolganidan keyin, o‘g‘rilar og‘ziga zo‘rlab tiqishibdi*». Siddiqjon kuldi: “*Hamasini sizlarga tutdim*”, – desa, o‘lar ekanmi?»«*Undoq deydigan odam emas edi-da.Xullasi, it azobida o‘libdi*». A.Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. (O‘TFL- O ‘zbek tilining frazeologik izohli lug’ati), (113).

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**CHUMCHUQ YURAK** o‘ta qo‘rroq. *Birdan..uchta lampochka lip etib yonib ketdi. O‘rtadagi so‘rida o‘tirgan yigit so‘rini qasir-qusur qilib o‘zini pastga otdi. Turtinib, oyoq ostidagi choynakni ag‘darib yubordi.* “E, o‘l-e, shunaqa **chumchuq yurakmisan?** Choyni ag‘darding-a “vayzonchoy” edi-ya, attang. S.Ahmad, Hukm.(O‘TFL, 295).

**OTNING QASHQASI** – o‘ta darajada taniqli, hammaga ma’lum va mashhur deb izohlanadi. 204-bet

«O‘zingiz o‘ylang, bir vaqtłari qishloqda bosmachiga aralashmagan obro‘li odam qoluvdimi? Bizga o‘xshagan otning qashqalariga kun yo‘q edi...» – «To‘g‘ri, bu vaqtı zamon shunaqa bo‘lgan edi. Zamonaga qarab ish tutganmiz...» Sh. Rizo. Qor yog‘di, izlar bosildi.(O‘TFL, 204).

Qoraqalpoq tilida: **baxit qusi** – dawlet, mártebe, abiray, áwmet;

**ǵarǵa tamır** – jaqın, tanış; **dawlet qusi** – baylıq, baxıt, mártebe, áwmet; **jılqı minez** – menmen, tákabbir; **iyt azabı** – júdá qiyin, mashaqat, jábir; **iyt minez** – ashıwshaq, urısqaq, bıymaza; **iyt mutı** – júdá arzan.

### **Sifat + ot komponentli frazemalar:**

**NOUMID SHAYTON** har qanday sharoitda ham umidni uzmaslik kerak “Meniki bedavo dard. Har bir dori kuch-quvvatimni siqib-ezib, o‘zimni lattaday majmag‘il qiladi. Uh!...” – yengil xo‘rsindi Tohirjon. “Unday dema, bolam. **Noumid shayton**, – yupatib gapirdi dadasi.– Xudoyi Taolo har bir dardga bir davo yaratgan”. Oybek.Qutlug‘ qon. Mana, uch o‘gil ham ketdi. Ular qachon kelishadi?.. Ammo ona keksayib qoldi... ”Diydor ko‘rishamizmi? Ko‘rishamiz, **noumid shayton!**...” I.Rahim. (Chin muhabbat)

**SOG‘IN SIGIR** kim yoki nima kim uchun ma’lum miqdordagi mablag‘ bilan ta’minlab turadigan manba *Tantiboyvachcha uning sog‘in sigiri bo‘lgani uchun xursand qilish edi.* Oybek.Qutlug‘ qon. Yo‘q, uni kolxozdan quvmasalar, o‘z ixtiyoril bilan chiqmaydi, chunki hozircha kolxozi uchun bir **sog‘in sigir**. S.Ayniy. (Qullar)

Qoraqalpoq tilida: ǵarrı shaǵal – kópti kórgen, tájiriybeli; **erkin qus** – ózi menen ózi, ǵárezsiz adam.

**Ot + fe'l komponentli fe'l frazemalar.** Bunda birinchi component ot bilan, ikkinchi komponent fe'l bilan ifodalanadi, frazemadan chiqadigan umumiyl ma’no fe'l hisoblanadi:

**SHOX(I)GA URMOQ** kim kimning bilinar-bilinmas, lekin ta’sirli zarba bermoq [Saida] majlisda Zulfiqorovning **shoxiga urish** bilan raisning tuyog‘ini zirqiratmoqchi bo‘ldi va buni majlis ahli aniq bildi (A.Qahhor. Sinchalak).

«Murodovaga ishonsa kerak bu tirrancha, – deb o‘yladi Xalilov. – Dastavval Murodovaning **shoxiga urib qo‘yish** kerak..» I. Rahim.( Ixlos)

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**SHATALOQ OTIB** shiddat bilan, tez *Nemisga yetolmadik, aka, kelishda qadamlab keldi-yu, qochishda yomon ham shataloq otib qochdi-ye!* A.Qahhor. (Yangi yer)

**OT QO‘YMOQ** kim 1) otini tez yogurtirmoq *Usmon ota diydor ko‘rishish ishtiyoyida, sabri tugab, otiga qamchi bosdi.* Uning ketidan boshqalar ham **ot qo‘yishdi.** A. Qahhor.( Qo‘shchinor chiroqlari)

2) otliq holda bostirib bormoq. Sinonimi: ot solmoq

*Bo‘taboy bu yo‘llardan juda ko‘p qatnagan. Tuprog‘i bilqillab yotgan shu ko‘chalardan beshotar osib, Xolxo‘ja yigitlari ketidan ot qo‘ygan yillari hali esida.* S.Ahmad. (Hukm) (O‘TFL,204).

Qoraqalpoq tilida: **at salisti – járdemlesti**, kómeklesti, úles qostı;

**At terletti – uzaq jol júrdi; búlbúl boldi** – kóp sóyledi, mijidi.

### **Uch komponentli frazemalar:**

#### **a) ot + ot + fe'l komponentli frazemalar:**

**SAVLAT(I)DAN OT HURKADI** kimning – **SAVLAT(I) OT HURKITADI** kimning tashqi qiyofasi salobatli, lekin ma’naviy dunyosi kambag‘al; quruq savlatga zo‘r bergen. *Savlatidan ot hurkadi, xumdek kalla, To‘y qilishga bezillarydi yurt, mahalla* S. Abdulla. Aqlmirzoning «donishmandlik»lari.

*Chiqib tez-tez, satang, bema‘ni nodonlarni «ur to‘qmoq» Ichi po‘k, savlati ot hurkitar jonlarni “ur to‘qmoq”. S. Abdulla "Ur to‘qmoq". Agar xotiningga atir-upami, biror narsa sovg‘a qilmoqchi bo‘lsang, adangga: «Kelingizga bir nima sotib olmoqchi edim, pul bering», – deb yalinasanmi? Savlatingni qara, ot hurkitadi.* S. Anorboyev. (Oqsoy)

**JO‘JANI KUZDA SANAMOQ** kim mehnat-faoliyatga yakuniga qarab baho bermoq. *Chopiq vaqtida nima degan edilar, "Yaxshi ot keyin chopadi, jo‘jani kuzda sanaymiz", – demaganmidilar?* S.Ahmad. Qadrond dalalar. Voy, tilingni juda ham besh qarich qilaverma, ko‘rarmiz kim betayinligini, **jo‘jani kuzda sanaymiz**, oshna. A.Muhiddin.(Oshnalar)

Qoraqalpoq tilida: buwınına qurt tústi –qıynaldi; jılanniń mayın jalaǵan–sumlıqlı, jalatay, hiyeler; **izinde tuyaq qalmadı** – perzenti joq; **iyt azabin berdi** – qıynadı, jábirledi, xorladı.

#### **b) ot +fe'l + fe'l:**

**TUYANI TUZLAMASDAN YUTMOQ** kim har qanday ishni udda qila olmoq, uddaburonlik bilan ish qilmoq

*“Mening bir amakim bor. Yoshi yetmish oltida shekilli”, – dedi Bektemir jonlanib, e’tiroz bilan. “Ha, u chol tuyani tuzalmasdan yutadiganlardan...”* – dedi Asqar polvon. Oybek.(Quyosh qoraymas) **Tuya qilmoq:** non(i)ni tuya qilmoq

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

**BO‘RI YEB KETARMIDI?** *kimni hech narsa bo‘lmaydi, hech nima qilmaydi, qo‘rinchli hech narsa yo‘q.* Varianti: **bo‘ri yeydimi?**

“*Voy-ey, sizam bir qiziqsiz-ki, buvi, nima, meni bo‘ri yeb ketarmidi*” *dedi-yu, hovli etagiga yurib ketdi.* M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha. “*Topiladi bo‘ri yeydimi?!*” – *dedi bukurning xotini qandaydir sirdan darak beruvchi ohangda.* Oybek. Quyosh qoraymas.

**bo‘ri yeydimi??** *bo‘ri yeb ketarmidi??*

**PASHSHA UCHSA ESHITILARLI** har qanday tovushsiz, Mutlaq. Variant: pashsha “g‘ing” desa, eshitiladigan.

*Sada qayrag‘och va tol shoxlarida chirqillashgan tinimsiz chumchuqlar, allaqayerlarda g‘uv-g‘uvlashgan g‘urraklar bo‘lmasa, guzarni pashsha uchsa, eshitilarli jimlik qamradi.* M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha. *O‘ktam hovliga bet-qo‘li shira, changga botgan bir to‘da bolalar bian kurashgan holda kirdi.* Haligina pashsha “g‘ing” desa, eshitiladigan jimjit hovli qiy-chuvga to‘ldi. Oybek. Oltin vodiydan shabadalar.

Qoraqalpoq tilida: **siyir jalaǵanday boldı** – tawsıldı, bosap qaldı, qalmadı. Shıbin qorıp otırıldı – heshnárse islemey biykar júrdı.

### **To‘rt komponentli frazemalar:**

**ITDAN OLIB, ITGA SOLMOQ** kim kimni so‘kish so‘zları ishlatgan holda tahqirlamoq.

*Anov qor yoqqan kuni Japaq gadolarini to‘plab, yana seni itdan olib, itga solibdi.* A. Muxtor. Qoraqalpoq qissasi. (O‘TFL, 113).

**IT YOTISH, MIRZA TURISH** yashash uchun hech qanday qulayliklar yo‘q. Avvalo u Rahmonqulovning turadigan joyini yomonlab ketdi. «*Idora boshlig‘imisiz, da kimsiz? Bu nima? It yotish, mirza turish!* Na stol, na kursi, na ko‘rpa, na kitob! Yo‘l-yo‘lakay yotib ketgani kirgan odamga o‘xshaysiz, men sizga aytsam!

Qoraqalpoq tilida: **baliq suwǵa kirgendey boldı** – erkinsidi, ózin erkin sezdi; **basına iyt kúnin saldı-qıynadı**, azap berdi, xorladı; **basına iyt terisin qaplادı** – qıynadı, xorladı, azap berdi.

### **Besh komponentli frazemalar:**

**ISHI BITDI, ESHAGI LOYDAN O‘TDI** kimning bir maqsadi amalga oshgach, aloqa va muomalani yig‘ishtirmoq. Varianti: **ish bitib, eshak loydan o‘tgandan keyin (-) ; eshagi loydan o‘tdi**

*Ertasigayoq juvonning ishi bitdi. Shu-shu juvon: “Ishim bitdi, eshagim loydan o‘tdi”, – deb, unutib ketadigan “nomardlardan emasmiz”, – deb, Xo‘jabekovning oldiga kelib turadigan bo‘ldi.* S.Anorboyev. Oqsoy. “*Xo‘p* ” desa, **ishing bitib,**

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

*eshaging loydan o‘tgani, “Yo‘q ” desa,..P.Tursun. O‘qituvchi. Ish bitib, eshak loydan o‘tgandan keyin, zo‘ravonlar chiqib, yerlarni egallab oladigan bo‘lsa,..M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha.Boy endi bitini ham bermaydi, eshagi loydan o‘tib olgan! M.Ismoiliy. Farg‘ona tong otguncha.Bunaqada ish bitadimi?! Har qanday mexanizator ham ishim bitdi, eshagim loydan o‘tdizaylida ishlab, jo ‘nab qolaveradi. R. Fayziy. Cho‘lga bahor keldi.(O‘TFL, 118).*

**LO‘LINING ESHAGINI SUG‘ORIB, PULINI OLMOQ** – kim har qanday yo‘l bilan ham daromad topishga intilmoq. Varianti: **lo‘lining eshagini sug‘or, pulini ol.** *Bizning berasimiz bo‘lgan joylarda sening olasing bo‘ladimi, qilmaganing... shu qolgan ekan-da, nomard; lo‘lining eshagini sug‘orib, pulini olaman degin, ha-ha-ha...G‘.G‘ulom.Netay. Man senga ikki og‘iz gapiray: birinchidan, pulning qadrini bil, lo‘lining eshagini sug‘or, pulini ol. Sanga yarashadi, negaki, kambag‘alsan.Oybek.Qutlug‘ qon.* (O‘TFL, 168).

Qoraqalpoq tilida: **bir siyirdan eki teri aldı – payda kórdi**, tabis túsirdi; **jerdiń astında jilan qıymıldaǵanın biledi** – sezgir, ziyrek, aqıllı; **iyt penen qusqa jem boldı** – hárkimniń qolında ketti.

### **Olti komponentli frazemalar:**

**O‘Z(I)NI AKA DEB, ECHKI(SI)NI TAKA DEB** [kimning] xushomadgo‘ylik bilan maqtab, “Voy, u kishinikimidi bu [ko ‘chatlar]? O‘zimizniki! – dedi Qumri. – **O‘zlarini aka deb, echkilarini taka deb zo‘rg‘a opkeltirdim**”. A.Muxtor. Opa-singillar.(O‘TFL, 326)

**OTASI URMAS QO‘NG‘IZNI, BOLASI URAR TO‘NG‘IZNI** ajodolari kichik bir ishni ham uddalay olmagani holda, hozirgi avlod juda katta ishlar qilishga qodir Xonadonlarga Asakadan gaz keltiramiz. Kolxozchining qozoni Dukchi eshonning karomatisiz ham o‘zidan-o‘zi qaynaydigan bo‘ladi. «**Otasi urmas qo‘ng‘izni, bolasi urar to‘ng‘izni**» degan gapni eshitgamisan? O‘lmasak, hali ko‘p ishlar qilamiz. S.Ahmad. Qadrdon dalalar.(O‘TFL, 203).

### **Yetti komponentli frazemalar:**

**OG‘ZIGA OQ IT KIRIB, QORA IT CHIQDI** [kimning] har xil haqorat so‘zlarini aytmoq. Masalan:

*Istamhoji boshida Xayri opani , keyin o‘sha yerdagilarni qattiq urishdi. Hammasing kapalagi uchib, bo‘zrayishib qoldilar. “Yo‘qollaring, hammangning basharang qursin! ”– debog‘ziga oq it kirib, qora it chiqdi.* Oydin. Yamoqchi ko‘chdi.( (O‘TFL, 210).

Xulosa qiladigan bo‘lsak, yuqoridagi tasvirlardan ayonki, frazeologik birlikning qaysi frazeologik turkumga mansubligi iboradan bir butun holda anglashiladigan

# **“O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA ADABIYOTSHUNOSLIGI TARAQQIYOTI, XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”**

## **mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**

turkumlik semasi asosida belgilanadi. Frazeologik birlikning leksik tarkibi, grammatik shakllanishi ikkilamchi belgilar sifatida hisobga olinadi.

Yuqoridagi kabi tahlilni boshqa turkum frazeologik birliklari bo‘yicha ham davom ettirish mumkin. Barcha hollarda frazemaning mazmun jihatini bilan ifoda jihatini orasidagi mutanosiblikka yoki nomutanosiblikka duch kelinadi. Nomutanosiblik mavjud o‘rinlarda turkumlik semasi asosiy o‘lchov bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, o‘zbek tilida mavjud bu ibora qoraqalpoq tilida ham bor bo‘lib, ma’nolari ham bir-biriga yaqin. O‘zbek tilidagi frazemalarning struktural xususiyatlari ham bir-biriga yaqin ekanligi ma’lum bo‘ldi. Qoraqalpoq tilining frazeologik lug‘atida berilgan frazemalar soni ko‘pligi ko‘rindi, ammo ularning tarkibi jihatidan tuzilish qoliplari o‘zaro yaqin ekanligi asoslandi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro ‘yxati:**

1. Айназарова Г. Қарақалпақ тилинде тенглес еки компонентли фразеологизмлер: Филол. илим. кан. ... дис. – Нөкис, 2000
2. Бердимуратов Е. Ҳәзирги қарақалпақ тили. – Лексикология. – Нөкис: Билим, 1994.
3. Boltayeva B.I. O‘zbek tili frazeologik birliklarning transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil). – Samarqand, 2019.128-bet. Dis-2019/56-37.
4. Ganiyeva Sh.A. O‘zbek frazeologizmlarining strukturasi (shakily va mazmuniy modellashtirish).2017, Avtoref. 50-bet. ARY-521.
5. Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida frazeologik birliklarning funksional-uslubiy xususiyatlari. – Toshkent,1993. 297-bet. Dis-1220/1993.
6. Rahmatullayev Sh. Leksema va frazema ma’nosini komponent tahlilning ba’zi natijalari // O‘zbek tili va adabiyoti. 1986. № 3. – B.19-20.
7. Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Иккинчи китоб. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010. – Б. 163-166.
8. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilida fe’l frazemalarning bog‘lashuvi.
9. Vafoyeva M.Y. O‘zbek tilida frazeologik sinonimlar va ularning struktural-semantik tahlili. – Toshkent, 2009.127-bet.Dis 378 /2010.
10. Танирбергенов Ж. Қорақалпоқ тилида феъл фразеологизмларнинг лингвистик таҳлили: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD) ... дис. автореф. – Нукус, 2020. – Б. 19-21.
11. Yusupova B. Qaraqalpaq tiliniñ frazeologiyasi. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2014.